



**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ
ХАЛҚ ТАЪЛИМИ ВАЗИРЛИГИ
ЎЗБЕКИСТОН ГЕОГРАФИЯ ЖАМИЯТИ
ЖИЗЗАХ ДАВЛАТ ПЕДАГОГИКА ИНСТИТУТИ**

**“ГЕОГРАФИЯНИНГ МИНТАҚАВИЙ
МУАММОЛАРИ”**

**РЕСПУБЛИКА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ
КОНФЕРЕНЦИЯСИ МАТЕРИАЛЛАРИ**



ЖИЗЗАХ 2017

rangdagi kartochkalar yordamida teng sonli to'rtta 8ta talabadan iborat "mutaxassislar" guruhiga ajratiladi. Ular o'zlariga tegishli o'quv topshiriqlarni bajaradi va shu qism bo'yicha "mutaxassislar"ga aylanadi.

Ikkinchi guruh "mutaxassislar" uchrashuvi guruhi. Rangli kartochkalarning har birining orqa tomonida 1 dan 8 gacha raqamlar yozilgan bo'lib, barcha rangli kartochkalardagi raqamlar yig'indisi auditoriyadagi talabalar soniga teng bo'lishi lozim.

"Mutaxassislar" uchrashuvi kartochkalarning orqa tomonidagi raqamlar asosida 8 ta guruh tashkil etilib, bu guruhlar tarkibiga bir xil raqamli 4 xil rangdagi kartochkalarga ega bo'lgan 4 ta talaba kiradi. Shuni qayd etish kerakki, bu guruhlarda har bir qism (blok yoki modul) "mutaxassisi" bo'lishi shart.

Mazkur uchrashuvda "mutaxassislar"lar o'zlari egallagan bilimlarni xuddi "arra" tishlari ketma-ket kelganidek, navbat bilan o'rtoqlariga bayon qiladi. Ushbu guruhlarda o'quv materialining 4 ta qismi mantiqiy ketma-ketlikda qayta ishlab chiqiladi. So'ngra o'quv materiali yuzasidan tuzilgan topshiriqlar yaxlit holatga keltirilib, guruhlar o'rtasida savol-javob, munozara o'tkaziladi.

Talabalar bilimi test savollari yordamida individual tarzda o'tkazilib nazorat qilinadi va baholanadi. Guruh a'zolarining ballari jamlanadi, eng yuqori ball to'plagan guruh g'olib sanaladi.

Xulosa qilib aytganda, o'qitish jarayonining samaradorligi o'qituvchi tomonidan talabalarning bilish faoliyatini o'qitish vazifalari va maqsadlariga muvofiq tashkil eta olish ko'nikmalarini egallaganlik darajasiga bog'liq bo'ladi.

"Mirzcho'l iqtisodiy rayoni" mavzusini o'qitishda lokal darajadagi pedagogik texnologiyalardan "Keys", "Insert", "Klaster", Venn diagrammasi, "Aqliy hujum", "Kichik guruhlarda ishlash", "Atamalar zanjiri", "Atamalar varag'i", tezkor o'yinlar va o'yin mashqlarning turli shakllaridan foydalanish tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. -Toshkent.: Ma'naviyat, 2013. - 176 b.
2. Karimov I.A. Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelajagi yo'lida xizmat qilish – eng oliy saodatdir – T.. O'zbekiston, 2015. – 304 b.
3. Солиев А.С., Қаршибоева Л.-Иктисодий географиянинг назарий ва амалий муаммолари. -Т., 1999.
4. Солиев А.С., Махамдалиев Р.Й.-Иктисодий география асослари. -Т., 1995.
5. Ата-Мирзаев О., Тухлиев Н. Узбекистан природа население экономика. "Ўзбекистон миллий энциклопедияси". -Т., 2009.

**Urinbaeva F.B., Avezimbetov N.
Qoraqalpoq davlat universiteti**

QORAQALPOG'ISTON ZOOTOPONIMLARI

Bugungi kunda dunyo xaritasida hayvonlarga bog'liq tarzda vujudga kelgan joy nomlari ko'p uchraydi. Hozirgi vaqtda mavjud bo'lgan bunday nomlarni tahlil qilish bilan qadimda ayrim hayvonlar tarqalgan hududlarni ham aniqlash mumkin. Hayvonotlarga bog'liq nomlangan joy nomlari toponimikada –zootoponimlar deb ataladi. Galapagos (toshbaqa), Azor (qirg'iy), Kayman (timsoh turi), Bamako (timsohli daryo), O'zbekistonda esa Ilono'tdi, G'azalkent (g'izol - kiyik), Qoplonqir, Ilonlisoy, Kaptarxona, Bo'rijar kabi zootoponimlar mazkur joylarda qadimda shunday hayvonlar ko'p bo'lganligidan dalolatdir.

P.P.Semenov – Tyanshanskiy (1924) nom berish jarayonida obektning biron-bir belgisi yoki xususiyati, tavsifining ahamiyatini quyidagicha izohlagan: "Aholi manzilgohlari nomlarini kuzata turib, odamlar o'zlarining turar joylari nomlarida beixtiyor va muntazam ravishda yashash muhitining tabiiy geografik manzarasining xarakterli xususiyatlarini tasvirlaganlarini

ko'rishimiz mumkin. Malum bir tabiiy manzaraning bir qismida yashayotgan dehqon o'zining turar joyini nomlashda beixtiyor shu manzaraning ko'zga tashlanuvchi ajoyib belgilarini tasvirlashga harakat qiladi. Dastavval shu nomni olgan predmet er yuzasidan yo'qolib ketsa ham shu erda yashovchi aholi bilan uning nomi yashashda davom etadi". Bu holatni aynan zootoponimlar uchun ham xos desak mubolag'a bo'lmaydi. Zero, har qanday zootoponim mazkur joyda shu nomdagi hayvon yoki qush turining keng arcaldagi tarqalganligini, yashashini ifodalasa, ba'zi holatlarda shu joyda alohida belgi sifatida ajralib turgan hayvon turiga nisbatan ham qo'yilgan bo'lishi mumkin. Har ikki holatda ham ushbu hudud tabiatining alohida xususiyati joy nomida tasvirlanganligini ko'rishimiz mumkin.

Zootoponimlar tarkibida *ayg'ir, baliq, baliqli, bahrin, bedana, biya, burga, burgut, buvra, bug'ra, bo'ri, laylak, ot, tuya chigirika, echki, qarchig'ay, qarg'a, qulon* kabi komponentlar uchraydi. Zootoponimlarni boshqa toponimlardan (asosan etotoponimlardan) farqlashning qiyinligi shundaki, ularni urug'lar nomlari bilan adashtirmaslik kerak. Ularni tog'ridan – tog'ri zootoponim tarkibiga qoshish notog'ri. Qadimda ayrim urug' – aymoq vakillari o'zlarini shu hayvondan tarqalganmi deb, ularni muqaddas bilishgan. Bu hodisa fanda «totem» deb ataladi. Masalan, ilon, qarg'a, olaqarg'a, echki, qarsaq (cho'l tulkisi) kabi urug' nomlari zootoponimga o'xshab ketadi (S. Qoraev, 2006).

Bundan tashqari qozoyoqli degan o'zbek va qoraqalpog' urug'i bor. Uning tamg'asi shaklan g'ozning panjasiga oxshaydi. Qadimda urug'lar o'z chorva mollarini boshqa qabila va urug' mollaridan farq qilish uchun tamg'a qoyishgan. Uzoq o'tmishda insoniyat hayoti tabiat bilan chambarchas bog'liq bo'lganini esga olsak, tabiiy geografik nomlar ilgarilari hozirgiga nisbatan katta o'rin tutganini tasavvur qilish mumkin. Hayvonlarning nomlaridan kelib chiqqan aholi punktlari -- zoooykonimlarni esga olaylik: *Baliqchi, Bahrin, Bedana, Beshechki, Biya, Burgali, Burgutqal'a, Bo'risoy, Bo'rilepa, Ilonli, Qarchig'a, Qarchig'ay, Qarg'a, Qarg'alar, Qarg'atepa, Qulonxona, Qulongoq, G'ajir* va boshqalar. Ko'rinib turibdiki, hayvon nomlari bilan yuritiladigan qishloq va shaharlar ko'p emas. Bundan tashqari bu tipdagi oykonimlarning chindan ham biron hayvon turi nomi bilan atalganini to'la ishonch bilan aniqlash qiyin. Buning sababi shundaki, har qanday hayvon nomi boshqa, ko'chma ma'noda qo'llanilgan bo'lishi ham mumkin. Quyida bazi zootoponimlar izohini keltirib o'tamiz:

Tuyamo'yin – suv ombori, shuningdek. Xorazmda aholi manzilgohi nomi. Bu toponim obektning ko'rinishi shaklan tuya bo'yiga o'xshatilganligi sababli qo'yilgan bo'lsa ajab emas. Zero, V.V.Radlovning «Tuyamo'yin – tog', daryo, qumlik joylarning tor qismi – yo'lagidir» degan fikrlari ham bejizga emas. Demak, bu toponimning kelib chiqishi mahalliy geografik terminga borib taqaladi. Ya'ni, geografik terminlar ichida metafora terminlar ko'p uchraydi. Metaforik-geografik terminlar ichida eng ko'p tarqalganlari va ko'p ishlatiladiganlari, asosan, inson organizmi va hayvonlar a'zolariga bog'liq shakllangan terminlar hisoblanadi: og'iz, bo'yin, tovon, bosh, ko'z, oyoq va h.k. Metafora asosida nomlanish hodisa yoki narsaning shakli, rangi, harakatlanish xususiyatlari va h.k. jihatidan bir-biriga o'xshashi yoki mos kelishiga asoslanadi (Reformatskiy, 1960). Shuningdek, geografiya va toponimikada metafora-terminlar haqida E.Murzaev, V.Murzaev, A.Beletskiy, N.I.Tolstoy va boshqalar ham atroflicha fikr yuritishgan. Lekin, istisno tariqasida **Tuyabo'g'iz** (suv ombori) gidronimi ma'nosini «*tuya xalqumi*» deb izohlash yangilishdir. Chunki, bug'iz, so'zi «*xashak*», bo'g'iz bermak – «*edirmoq*» manosida bo'lib, *tuya bo'g'iz* – «*tuya eydigan o't*» demakdir. *Tuyabo'g'iz* degan urug' ham bo'lgan.

Tuyatortar gidronimining (kanal nomi) nomlanishidan esa qurilishda asosiy transport faqatgina tuya bo'lganligini bilish mumkin (H.H.Hasanov, 1965). Bunday gidronimlar Respublikamizda bir necha joyda qayd qilingan. Bular ko'tarma ariqlardir. Ariqqa suv daryodan chig'ir orqali chiqarilgan. Chig'ir esa tuya kuchi bilan aylantirilgan.

Qoraqalpog'iston zootoponimlari tarkibida parranda nomlari bilan atalgan ko'llar ham bor: *Birqozonko'l (saqoqush), Quvliko'l (oqqush), Qo'tonko'l*. Quv o'zbek adabiy tilida *oqqush* deyiladi. *Qoraboyli* — Mo'ynoq, Xo'jayli tumanlaridagi joy. Qoraboy (qoraqalpog'cha —

qarabay) — turnaga o'xshagan qush (ruschasi — *baklan*). O'zbeklarning yuz, qirg'izlarning munduz qabilasida *qarabay* (qoraboy) degan urug' bo'lgan.

Sazanjab - ovul, Chimboy tumani. *Sazan* - baliq turi, *jap, yap (yop)* — kanal.

Sudoche - Mo'ynoq tumanidagi ko'l. Qoraqalpoq toponimisti Q. Abdimurotov *Sudoche* qoraqalpoqcha «suvi dushshi», ya'ni «suvi chuchuk (ko'l)» so'zlaridan kelib chiqqan deydi. Agar shunday bo'lsa bu nom *Dushshiko'l* (Chuchukko'l) bo'lar edi. Turkiy toponimlar tarkibida *suv* so'zi toponim oxirida keladi: *Achchisuv, Shirinsuv, Qorasuv, Oqsuv*. Ilgarilari So'rko'l (Sho'rko'l) deb atalgan. Bu yerlarda Uraldan kelgan ruslar yashagan. Ular mahalliy xalqqa baliq tutish, tuzlash yo'llarini o'rgatgan va ko'lni *Sudoche* — «*sudak balig'i ko'li*» deb atagan (qoraqalpoqlar bu baliqni sila balig'i deb ataydi).

Suyenarim — Mo'ynoq tumanidagi ko'l. Ruslar usach («mo'ylovli») deb ataydigan baliqni Amudaryo etagida *suyen* (*suvan, so'gen, suo'en*) deyishadi. *Arim* qoraqalpoq tilida «pastlik, chuqurlik, soylik» demakdir.

Qoplonqir — Ustyurt chinkining bir qismi. Bu yerlarda bir paytlar chindan ham qoplon yashagan deyiladi.

Qulontaqir — oronim, Kegayli tumani. Ilgari shu atroflarda ham qulon bo'lganini ko'rsatuvchi dalil (*Qulontaqir* — *qulonlar suv ichadigan ko'lماك*). (S.Qorayev, 2006).

Xulosa qilib aytganda, Qoraqalpog'iston toponimiyasi tarkibida zooonimlar salmoqli o'rin tutadi. Ularni yanada chuqurroq o'rganish, tasniflash natijasida respublika tabiati, hayvonot olami haqida qimmatli ma'lumotlarga erishishimiz mumkin.

Adabiyotlar:

1. Mirakmalov M.T. Xalq tabiiy geografik terminlari. —T.: «Fan va texnologiya», 2009.
2. Murzaev E.M. Ocherki toponimiki. —M.: Misl, 1974.
3. G'ulomov P.N., Mirakmalov M.T. Toponimika va geografik terminshunoslik. —T.: Universitet, 2005.
4. Hasanov H.H. O'rta Osiyo joy nomlari tarixidan. —T.: «Fan», 1965.
5. Qoraev S. Toponimika. —T.: "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti", 2006.

Умарова М. Х., Қудратова Л.Т.
Термиз давлат университети

ЁШЛАРНИНГ ЭКОЛОГИК САВОДХОНЛИГИНИ ОШИРИШДА ГЕОГРАФИК ТАЪЛИМНИНГ РОЛИ

XX asrning ʻrtalaridan boʻshlangan fan va texnika inkilobi hozirgi jamiyatda muhim hodisalardan biri hisoblanadi. U ishlab chikarişda tub buрилиш ясади, халқ хўжалигини ривожлантириşда, иктисодиётнинг ўсиşида ишончли восита бўлиб хизмат кила боşлади. Фан ва техника жамиятнинг ишлаб чикариş кучига айланди, шу билан бирга фан ва техника тараққиётининг жадаллашуви инсоният олдиға янги муаммоларни кўндаланг қилиб қўйди. Улардан асосийси табиат билан инсон ўртасидаги муносабатнинг кескинлашувидир.

Экологик инкирознинг бундай кескинлашуви таъсири остида жамоатчилик, шу жумладан ёшларға бериладиган экологик таълим ва тарбия масалаларини такомиллаштириşни тақозо этади. География таълими орқали ёшларда Ер хақидаги илмий дунёкараş, умуминсоний маданиятнинг таркибий қисми бўлган географик маданият шаклланади. Айниқса ҳудудларнинг табиий географик шароити ва унинг табиий ресурсларидан хўжалик мақсадларида оқилонға фойдаланиş масалаларини ишлаб чиқиşда табиий география фанининг аҳамияти катта.

Шу сабабли табиий география фанининг асосий вазибаларидан бири ўқувчилар онғиға табиий ресурслардан фойдаланиş жараёнида атроф-муҳитға зарар етказмаслик, табиатнинг бир бутунлиги, табиат компонентлари орасидаги доимий алоқадорлик мавжудлиги, табиат комплексларига ноўжўя таъсир этиş орқали вужудға келган

102. Esanov N.A., Maxmarajabov B. O'zbekiston respublikasining iqtisodiy rayonlari mavzusini o'qitishning dolzarb masalalari	227
103. Suvanov R. Shaxs ma'naviy barkamolligini tarbiyalash omillari va vositalari.....	230
104. Nematov A.N. Kogon tumanining tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatga ega bo'lgan joy nomlarining geografik jihatlari	232
105. Хўжаназарова С. География фанини ўқитишда ноанънавий дарс усуллари ва ахборот технологияларидан фойдаланиш имкониятлари	234
106. Esanov N.A., Fayzullayev A. Mirzacho'l iqtisodiy rayoni mavzusini o'qitishdagi innovasiyalar va ilg'or xorijiy tajribalarning uslubiy asoslari.....	236
107. Urinbaeva F.B., Avezimbetov N. Qoraqalpog'iston zootoponimlari	239
108. Умарова М. Х., Қудратова Л.Т. Ёшларнинг экологик саводхонлигини оширишда географик таълимнинг роли	241
109. Қурбонов П.Р., Боймуродов С.М. Олий таълим муассасаларида баҳолаш тизимини такомиллаштириш масалалари (5110500-География ўқитиш методикаси таълим йўналиши мисолида)	243
110. Шокиров Р. Ш. Порашт қишлоғи ойқонимлари	245
111. Mamadiyev A.Q. Jizzaxlik georaf olimlar	249
112. Самандарова М., Гужилов Н., Анварова М.А. Таникли географлар ҳақида ...	252
113. Абдумўминов Б.О. "Panorama" GIS karta дастурида жойнинг 3D моделини ҳосил қилиш масалалари	254
114. Esanov N.A., Karimov Y. Afrika mamlakatlari mavzusini o'qitishda yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish usullari	256
115. Аманжасов А.Х., Мирзаев Б.Н. "Тарихий Рашидий" асарида Шарқий Туркистон тарихига оид маълумотлар ва уларнинг тарихий таҳлили.....	259
116. Xoldorova G., Qorayeva.F., Murodova N. Geografiya ta'limida tarixiy yondashuv usullari	261
117. Эсанов Н.А., Файзуллаев А. Табиий география дарсларида бадиий адабиёт манбаларидан фойдаланишнинг айрим масалалари	264
118. Akaboev I.Z., Mirzaaxmedov X.S. "Arcgis 10.2" dasturida mavzuli kartalar qatlamlarini (Layers) yaratish	266

V ШУЪБА. ГЕОЭКОЛОГИЯ ВА АТРОФ-МУҲИТНИ МУҲОФАЗА ҚИЛИШ МУАММОЛАРИ

119. Алибеков Л.А., Алибекова С.Л., Ҳакимов К., Қўшақов А., Йўлдошев А. Чўлланиш жараёни ва унга қарши кураш муаммоси	270
120. Rahmonqulov U.R., Mamadaliyeva E.Sh., Oxunova N. Jizzax viloyatining "Qizil kitob"ga kiritilgan o'simlik turlari va ularning muhofazasi.....	273
121. Султонов М.М., Жўлбоев Т.А., Рахимова М.А., Мирзаева Д.Ш. Табиий муҳитни муҳофаза қилиш ва табиий ресурслардан оқилона фойдаланиш	276
122. Тошбоев З.М., Уролова Ф.Ф., Қаландарова Г.Х., Дийхонбоева П. Ўрта осий ҳудудида табиатни муҳофаза қилиш ишлари	277
123. Зиқиров Б.Я., Очилова М.Б. Жиззах вилояти табиатини муҳофаза қилишга янгича ёндашув.....	281
124. Худанов У.О., Ҳазратқулов М.Д. Коллаген саклаган чиқиндиларни қайта ишлатишнинг экологик аҳамияти	282
125. Сиддиқова Ҳ., Умаров Ш.И., Бекмирзаев М.М., Маматмуродова Ф.Б. Саноат корхоналари чиқиндилари ва улардан тўғри фойдаланиш	284
126. Авалбоев О.Н., Умиров Н.Х., Раҳматова К.И., Сулайманов Х. Зомин миллий табиат боғидаги арчазорларни зарарқунанда ва касалликлардан химоя қилиш йўллари	285